

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YO'NALISHI TALABALARIDA IJODIY ТАФАККУРНИ RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*Ruziyeva Iroda Payzilloyevna*

*Shahrisabz Davlat instituti Ta'lim -tarbiya nazariyasi*

*Maktabgacha ta'lim yunalishi 2-bosqich magistranti.*

*Tel:+998919580588 email: [irodaru31@gmail.com](mailto:irodaru31@gmail.com)*

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tarbiya, tafakkur, talaba, ijodiy, metodika, rivojlantirish, iqtidorli shaxs, faoliyat, ijodiy fikrlashni faollashtirish, fikrlashning moslashuvchanligi, muloqot qilish, tafakkur jarayonlari, modellashtirish

O'rganuvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga ko'maklashish ularning o'z mavqelarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish, ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni taqdim etishni anglatadi. O'zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va qat'iy qaror toptirish nihoyatda murakkab tarixiy va ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga to'g'ri kelmoqda. Fuqarolar ongi va dunyoqarashi, ruhiyatini eskicha qarashlardan, boqimandalik, tashabbussizlik, mute'lik, qaramlik kabi illatlardan soqit etish, tozalash yana ham murakkab ijtimoiy muammodir. Bu darajada ulkan va keng miqyosli tadbirlarni jamiyat hayotining barcha jabhalarida bosqichma-bosqich, bir tekisda uyg'un va izchil amalga oshira borish uchun yangi zamon talablariga javob bera oladigan, yangicha ong va dunyoqarashga ega bo'lgan, erkin, ijodiy va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalab yetishtirish eng muhim vazifalarimizdan biridir.

Ma'lumki, yurtimiz mustaqillikka erishgan yillaridan boshlab, bugungi kunga qadar ta'lim sifati va samaradorligini oshirish borasida juda kuplab ilmiy -amaliy ishlar tashkil etildi hamda amaliyotga tadbiiq etildi. Zamonaviy bilimlarga ega, yuksak ma'naviyatli, dunyoqarashi keng, ijodiy fikrlay oladigan Kadrlarni tayyorlash ularni mustaqil amaliy faoliyatga kirisha olish darajasidagi mutaxassis qilib tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimiz Shavkat Miromonovichning ta'lim sohasida olib borayotgan islohotlari asosini maktabgacha ta'limda yuqori samaradorlikka erishish muhimligi kursatib berilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarni tuliq amalga oshirish borasida, kadrlar tayyorlash va ularda ijodkorlikni tarkib toptirish, tarbiyalanuvchilar bilan ishlash davomida uzining mustaqil fikri, ijodkorligi, ijodiy tafakkuri orqali ma'lum natijaga erisha olishi zarur.

Maktabgacha ta'lim yunalishi talabalarining mustaqil fikrlay olishi, ijodkorligi, ijodiy tafakkurini rivojlantirish buyicha olib borayotgan tadqiqot ishimiz tavsiyalari maqolamizning mazmunini tashkil etadi. Ushbu muammo oliy maktab psixologiyasi, ijod psixologiyasi, tafakkur psixologiyasi fanlari doiralarida ancha keng o'rganilgan bo'lib, aynan talabalarda ijodiy tafakkurni shakllantirish va

rivojlantirish masalasi ilmiy ijodiyot metodologiyasi fani doirasida ham o'rganilib kelingan. Har qanday shaxs kasbiy bilimlarning rivojlanishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shuning uchun ham shaxs o'zining ijodkorligi bilan kasbiy faoliyat tajribasini yaratishi, boyitishi, to'ldirishi lozim. Bunday tajribalarni talaba oliy pedagogik ta'lim muassasalarida o'zlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradi. Talaba shaxsi har doim muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy faoliyat ko'nikmalarini namoyon eta olishi kerak. Shundagina u o'z kasbiy faoliyati davomida ijodkorligini namoyon eta oladi. Bugungi kunda o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabalardagi ijodkorlik sifatlarini shakllantirishda yetakchi vositalardan biri ekanligini «o'zini-o'zi boshqarish», «o'zini-o'zi rivojlantirish», «shaxsiy faollik», «o'zini-o'zi tashkil qilish» kabi tushunchalarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim amaliyotida qo'llanishi ham asosiy dalil bo'lishi mumkin. Bularning hammasini umumlashtiruvchi jihat shundaki, sub'ektning o'zi o'zining o'qish, ta'lim va rivojlanish jarayonining tashabbuskori va tashkilotchisi bo'ladi, ya'ni ta'lim oluvchi – talaba bilishning sub'ektiga aylanmaydi, balki avval boshdan shunday sanaladi.

**Tafakkur**—inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; ob'yektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular ortasidagi boglanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yol bilan aks ettirishga aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va tolaroq aks etadi.

Talabalarda ijodiy tafakkur yuritish ko'nikmasi – olim, tadqiqotchi, yaratuvchining qobiliyatlari va mahorati, irodasi, tirishqoqligi va qat'iyati, yakuniy maqsad – yangi foydali ilmiy bilim olishga intilishining ifodasidir. Tadqiqotimiz ob'ekti – oliy ta'lim muassasalari talabalarining tafakkur yuritish turlari, ijodiy faoliyat turlari hisoblanadi.

Talabalarining ijodiy faoliyatiga tayyorligini yoki ularning o'z bo'lajak kasblariga ijodiy yondasha olishlarini psixologik jihatdan o'rganishdan maqsad talabalar muhiti, ularga ta'lim berish xususiyatlari, ularning ilmiy va badiiy ijod, kasbiy ijodkorlik va ijodiy faoliyat haqidagi tasavvurlari, talabalar jamoasi, bo'lajak mutaxassis – talaba shaxsi ijodiy faoliyati uchun qulay psixologik shart-sharoitlar yaratishdir. Talabalarda ijodiy faoliyatga tayyorlik dinamikasi – o'sib borish jarayonini bosqichma-bosqich o'rganish natijasida talabalar ijodiy tafakkurining o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi. Talabalarni o'z kasbiga ijodiy yondasha olishi darajasida tayyorlash murakkab jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojlari, qadriyatlari, hissiyotlari va intellekti hamda kasbiy va hayotiy motivatsiyasiga bog'liq bo'ladi. Talabalarda ijodiy tafakkurni shakllantirish orqali:

- oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi sifati va samaradorligi oshadi;

– jamiyatda intellektuallar, ijodkorlar, raqobatbardosh zamonaviy kadrlar sonini oshirish va shu yo‘l bilan jamiyatimiz nufuzini dunyo miqyosida oshirishga erishamiz;

– kadrlar raqobatbardoshligi, saviyasi, mehnat va ishlab chiqarish samaradorligi, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik darajasi oshadi.

Bu esa o‘z navbatida, albatta, jamiyatimizning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Turli yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyatining ijodkorlikka yo‘naltirilganligini to‘laqonli tarzda o‘rganish uchun munosabat nazariyasi nuqtai nazaridan yondashish kerak. Chunki munosabat shaxsning mayllarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu asnoda shaxsning kasbiy yo‘nalganligini aniqlash imkoniyati vujudga keladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘qituvchilik kasbini tanlash omillarini tahlil etar ekanmiz, kasbiy faoliyatning ahamiyatini talabalar qay darajada anglashlariga e‘tibor qaratdik. Shu asosda quyidagilarni aniqlashga muvaffaq bo‘ldik:

– o‘quv predmetiga nisbatan qiziqishning mavjudligi;  
– muayyan predmetning o‘zlashtirish istagining mavjudligi;  
– o‘zini o‘quvchilarga, ta’lim-tarbiya berishga bag‘ishlashga intilishning ustunligi;

– o‘zining pedagogik layoqatini anglashi;  
– oliy ta’lim olish istagining kuchliligi;  
– o‘qituvchilik kasbining jamiyat uchun muhimligi haqidagi tasavvurining mavjudligi;

– pedagogik ijodkorlikka moyillikning mavjudligi;  
– moddiy jihatdan ta’minlanish ehtiyojining kuchliligi kabilar.

O‘rganuvchilarning ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlashning natijalari ularning o‘ziga xosliklari va ijodiy sifatlarini chuqurlashtirishda namoyon bo‘ladi. Ijodiy fikrlash o‘z navbatida o‘rganuvchilarni:

- mustaqil va ongli ravishda bilim olish;
- doimo olg‘a intilish;
- turli ziddiyatli va muammoli vaziyatlarni oqilona hal etish;
- noan’anaviy va yangicha fikr yuritishga o‘rgatadi.

Ijodiy faoliyat – tafakkur, fikrlash shakllari bo‘lib, ular qobiliyat, layoqat, havasni tarbiyalash yo‘li bilan rivojlantiriladi, yangilik, ijodkorlik ijodiy faoliyat belgilari hisoblanadi. Asosiy xulosa shuki, agar talabalarda ijodiy tafakkur haqidagi tasavvurlar kengaysa, kreativ faoliyati motivatsiyasi anglangan bo‘lsa va professional tayyorgarlik bo‘yicha maxsus korreksion metodikalar qo‘llanilsa, ularda ijodiy-kreativ tafakkur yuritishga tayyorlik darajasi izchil o‘sib boradi. Shuningdek, talabalar ilmiy-ijodiy izlanishlari, iqtidorli talabalarni qo‘llabquvvatlash, fan olimpiadalari, talabalar ilmiy konferensiyalari, ilmiy va badiiy to‘garaklarning samaradorligi ham ularda

ijodkorlikka qiziqish va motivatsiyani hamda tegishli malakalarning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Shamshetova A.Melibayeva R va boshqalar.Umumiy psixologiya fanidan UMK,2016.
2. G'oziyev E.G' .Umumiy psixologiya. Darslik.-T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005yy)
5. R.N.Melibayeva.Tafakkurni rivojlantirishning interfaol usullari. Monografiya. "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, 2013-yil.
6. DavletshinM.G.,To'ychiyevaS.M.Umumiy psixologiya.-T.: TDPU,2012.
7. Akramova, D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta'lim tizimidagi faoliyati. Science and innovation, 1(B8), 322-326.
8. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. Science and innovation, 1(B8), 2150-2153.
9. Abdieva, F. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ МАДАНИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Science and innovation, 1(B8), 2154-2156.
10. Ёзиева, У., & Абдиева, Ф. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari. Общество и инновации, 2(11/S), 111-114.

### **Internet saytlari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.psychology.uz](http://www.psychology.uz)